

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI



TASDIQLAYMAN
Farg'ona davlat universiteti rektori
B.Shermuhammadov
" 08 " 2024-yil

Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha kamida
besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni oliy ta'lim muassasalari
bakalavriatining tegishli ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga
qabul qilish

DASTURI

Ta'lim yo'nalishi:

60420100 – Yurisprudensiya

Farg'ona – 2024

Tuzuvchilar:

A.A.Ahrorqulov – FarDU Tarix fakulteti Huquq ta'limi kafedrasi mudiri, yu.f.f.d.

J.X.Qozixodjayev – FarDU Tarix fakulteti Huquq ta'limi kafedrasi dotsenti, yu.f.n.

Taqrizchilar:

J.A.Dadaboyeva – FarDU Tarix fakulteti Huquq ta'limi kafedrasi dotsenti, yu.f.n.

M.S.Usmonova – FarDU Tarix fakulteti Huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, yu.f.f.d.

Kirish

60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'limi yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarining "Davlat va huquq asoslari" va "Konstitutsiyaviy huquq" fanlari dasturlari asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Dasturning maqsadi va vazifalari

60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'limi yo'nalishida o'quvchilarni tayyorlash bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar talabgorlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda huquqshunoslik ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va talabgorlarning huquqshunoslik ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Huquqshunoslik fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi Davlat va huquq asoslari, ikkinchi qismi esa Konstitutsiyaviy huquqqa bag'ishlangan. Dastur huquqiy soha bo'yicha kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Dasturning **maqsadi** – Talabalarda davlat va huquqning mohiyati, qonuniyatlari haqidagi nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish kursning asosiy maqsadidir.

Dasturning **vazifasi** – davlat va huquq nazariyasi bo'yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, huquq normalarini sharhlash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga nisbatan qonun hujjatlarini izlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, mantiqiy va muammoli savollarga huquqiy asoslantirilgan javob berish ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'lim orqali talabalarga bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashish.

Talabgorning bilimiga qo'yiladigan talablar

Davlat va huquq nazariyasi qismida: Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat va huquq nazariyasi fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o'rni. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari. Davlat va huquq

nazariyasi fanining funksiyalari. Jamiyat hayotini demokratik yangilashda davlat va huquq nazariyasi fanining roli.

Jamiyat tushunchasi va uning tuzilishi. Jamiyat mavjud bo'lishi shakllarining xilma-xilligi. Jamiyat rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Davlatgacha bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat. Davlat – jamiyat mavjud bo'lishining bir shakli sifatida. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi nazariyalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari. Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati, davlat va tushunchasi va belgilari. Davlatning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi nazariyalar. Davlat hokimiyati – ijtimoiy hokimiyatning muhim shakli sifatida. Davlat hokimiyatining belgilari. Davlat tipologiyasi. Davlat tipologiyasi muammosiga formativaviy va sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlat funksiyalari Davlat funksiyalari tushunchasi. Davlat funksiyasining davlat maqsadi va vazifalari bilan o'zaro nisbati. Davlat funksiyalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari. Davlat funksiyalarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Davlatning shakllari Davlatning shakllari tushunchasi va uning tarkibiy elementlari. Davlat shakllarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Davlatning boshqaruv shakllari: respublika va monarxiya. Davlatning tuzilish shakllari: unitar, federativ va konfederativ. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari. O'zbekiston Respublikasi davlat shaklining o'ziga xos xususiyatlari. Davlat mexanizmi Davlat mexanizmi tushunchasi, tarkibiy qismlari. Davlat mexanizmidagi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. Davlat apparati tushunchasi. Davlat apparatini tashkil etish va faoliyatini amalga oshirish tamoyillari. Davlat organlari tushunchasi, tizimi, tasnifi. O'zbekistonda davlat hokimiyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari. Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida davlat mexanizmini isloh qilish masalalari. Ijtimoiy munosabatlar va huquq Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi. Ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning obyektiv zaruriyati. Ijtimoiy normalar tizimi: urf-odat, diniy, axloqiy normalar, jamoat tashkilotlari qoidolari va boshqa ijtimoiy normalar. Ijtimoiy va huquq normalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari. Huquq-ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning turi sifatida. Huquqning funksiyalari. Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar Huquqiy ong va huquqiy madaniyat Huquqiy ong tushunchasi, tarkibiy qismlari. Huquqiy ongning falsafasi va huquqiy mafkura. Huquqiy ongning turlari va darajalari. Huquqiy ongning funksiyalari. Huquqiy madaniyat tushunchasi, tuzilishi, darajalari. Huquqiy tarbiya – huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm. Huquqiy nigilizmni bartaraf qilish masalalari. Huquq normalari Huquq normalari

tushunchasi, belgilari. Huquq normasining tuzilishi: gipoteza, dispozitsiya va sanksiya. Normativ-huquqiy hujjatlarda huquq normalarini bayon etish usullari. Huquq normalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash. Huquq shakllari (manbalari) Huquq shakllari (manbalari) tushunchasi va turlari. Huquqiy odat – huquqning qadimgi manbasi sifatida. Huquqiy pretsedent tushunchasi, turlari. Normativ-huquqiy hujjat – huquqning manbasi. Normativ-huquqiy hujjatlarining turlari. Normativ shartnomalar – huquqning maxsus manbasi sifatida. Normativ-huquqiy hujjatlarining vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi. Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalari. O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbalari Huquq ijodkorligi Huquq ijodkorligi – huquq yaratishning murakkab jarayoni sifatida. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va prinsiplari. Qonun ijodkorligi jarayoni tushunchasi va bosqichlari. Huquq ijodkorligi jarayonida yuridik texnikaning roli. O'zbekistonda qonun ijodkorligi jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Huquq tizimi va huquqiy tizim Huquqiy tizim tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi. Huquq tizimi tushunchasi va tuzilishi. Huquq sohasi va huquq instituti tushunchalari. Huquq tizimini sohalarga ajratish asoslari. Moddiy va protsessual huquq. Huquq tizimini xususiy va ommaviy huquqqa ajratish. O'zbekiston huquq tizimining asosiy sohalari tavsifi. Huquq tizimi va qonunchilik tizimi. Qonunchilikni tizimlashtirish tushunchasi va turlari. Huquqiy munosabatlar Huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish asoslari. Huquqiy munosabatlar tarkibi. Yuridik fakt tushunchasi va turlari. Huquqdagi prezumpsiyalar va fiksiyalar. Huquqni amalga oshirish Huquqni amalga oshirish tushunchasi va shakllari. Huquq normasini qo'llash – huquqni amalga oshirishning muhim shakli sifatida. Huquq normalarini qo'llash jarayoni bosqichlari. Huquqni qo'llash hujjatlari tushunchasi, xususiyati va turlari. Huquqni qo'llash hujjatlarining normativ-huquqiy hujjatlardan farqlari. Huquqdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf qilish yo'llari. Huquq analogiyasi va qonun analogiyasi. Qonun hujjatlari o'rtasidagi kolliziyalar va ularni hal etish usullari. Huquq normalarini sharhlash Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va turlari. Rasmiy va norasmiy sharhlash. Huquq normalarini sharhlash usullari. Huquq normalarini hajmiga ko'ra sharhlash. Huquq normalarini sharhlash hujjatlari. Huquqiy xulq-atvor. Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik Huquqiy xulq-atvor tushunchasi va turlari. Huquqbuzarlik tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqbuzarlikning yuridik tarkibi. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, belgisi, turlari. Yuridik javobgarlik maqsadi, funksiyalari va prinsiplari. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar. O'zbekiston Respublikasida yuridik javobgarlikni liberallashtirish borasidagi sud-huquq islohotlari. Huquqiy tartibga solish mexanizmi Huquqiy tartibga solish mexanizmi tushunchasi, uning asosiy elementlari. Huquqiy tartibga solish va

huquqiy ta'sir etish. Huquqiy vositalar tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqiy rejimlar tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqiy rag'batlantirish tushunchasi, xususiyati, funksiyasi va turlari. Huquqiy imtiyozlar tushunchasi, xususiyati, funksiyalari va turlari. Huquqiy tartibga solish samaradorligi, belgilari va uni ta'minlash asoslari. Huquq ustunligi va huquqiy tartibot Huquq ustunligi tushunchasi va mohiyati. Qonuniylik prinsiplari. Qonuniylik kafolatlari tushunchasi va turlari va subyektlari. Qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning o'zaro nisbati. Huquqiy tartibot tushunchasi va uning obyektiv zaruriyati. Davlat va huquqning rivojlanish va istiqbol yo'llari Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari, tarkibiy elementlari Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari. Huquqiy davlat nazariyasi. Huquqiy davlarning asosiy belgilari va prinsiplari. Huquq ustunligi konsepsiyasi. Davlat va huquq nazariyasining zamonaviy holati va muammolari kabilar kiradi.

Konstitutsiyaviy huquq qismida esa: Konstitutsiyaviy huquqqa kirish Konstitutsiyaviy huquq – huquq sohasi va yuridik fan. Konstitutsiyaviy huquq sohasining predmeti. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, ularning xususiyatlari, subyektlari. Konstitutsiyaviy huquq fanining predmeti va fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Konstitutsiyaviy huquq normalari va ularning tasnifi. Konstitutsiyaviy huquq manbalari tushunchasi va tizimi. Yurist faoliyatida konstitutsiyaviy huquqning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nazariy asoslari, tarixi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining konstitutsiyaviy huquq manbalari hamda huquq tizimidagi o'ri. Konstitutsiyaviy huquq normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi tarixi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tuzilishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Konstitutsiyaning ustunligi va muhofazasi Huquq ustuvorligi va Konstitutsiyaning ustunligi. Konstitutsiyaning boshqa qonun hujjatlari bilan muvozanati. Konstitutsiyaning muhofaza qilish – konstitutsiyaviy nazorat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini sharhlash. Huquq normalarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlash (Konstitutsiyaviy sud faoliyati misolida). Davlat suvereniteti va tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari Suverenitet tushunchasi. Davlat suvereniteti belgilari. Davlat va xalq munosabatlari. Davlat ramzlarning konstitutsiyaviy maqomi. Davlat tilining konstitutsiyaviy maqomi. Davlat poytaxtining konstitutsiyaviy maqomi. Davlat suvereniteti va tashqi siyosat. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari Davlat hokimiyatining manbai. Halqning davlat hayotida ishtirok etishi. Demokratiya va uning shakllari. Davlat hokimiyatini amalga oshirish. Davlat hokimiyati vakolatlari bo'linishi

prinsipi. Davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida tiyib turish va muvozanat saqlash prinsipi. Siyosiy institutlar. Mafkura va fikrlar xilma-xilligi. Davlat hokimiyati faoliyatini amalga oshirishdagi prinsiplar. Shaxsning huquqiy maqomi. Teng huquqlilik va gender tengligi Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Shaxsning huquqiy maqomi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy holati. Asosiy va qo'shimcha huquqlar. Ijtimoiy va huquqiy tenglik. Huquqiy tenglik va imtiyozlar. Gender tengligi tushunchasi va O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash muammolari. Inson manfaati va ommaviy manfaatlar muvozanati. "Xabeas korpus" – Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklardan mahrum etish va cheklash tartibi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik. Fuqarolikni belgilash asoslari – qon va tuproq huquqi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi. Fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi davlat organlari va ularning vakolatlari. Fuqarolar huquqlarini himoyalash. Shaxsiy huquq va erkinliklar Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi. Yashash huquqi. Shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik. "Miranda" qoidasi. Aybsizlik prezumtsiyasi. Sudda himoyalaniish huquqi. Qiynoqqa solish, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamstuvchi boshqa tarzdgagi tazyiqqa duchor etishning ta'qiqlanishi. Sha'n va obro'ga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqi. Birovning turar joyiga kirish, tintuv o'tkazish yoki uni ko'zdan kechirish, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishning ta'qiqlanishi. Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqi. Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi. Axborot izlash, olish va uni tarqatish huquqi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqiligi. Huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi. Vijdon erkinligi. Siyosiy huquqlar Siyosiy huquqlarning mazmun-mohiyati. Fuqarolarning jamiyat va davlat siyosiy hayotida ishtirok etish huquqi – aktiv va passiv saylov huquqi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish va ishtirok etish huquqi. Jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida o'zchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari. Davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqi. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarning mazmun-mohiyati. Mulk huquqining konstitutsiyaviy asoslari.

Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalalanish huquqi. Majburiy mehnatning ta'qiqlanishi. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi. Bilim olish huquqi. Tilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari Inson huquq va erkinliklari kafolatlari tushunchasining mazmun-mohiyati. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari tizimi. Davlat hokimiyati va demokratik institutlar tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi. Sud tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqlarining davlat himoyasi. Konstitutsiyaviy burchlar Burch tushunchasi. Shaxs va fuqarolarning asosiy burchlari. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish. Boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish. Tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrash. Atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish. Soliq va mahalliy yig'irlarni to'lash. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Harbiy xizmatni o'tash majburiyati. Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy asoslari Jamoat birlashmalari va tizimi. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi ishtiroki. Kasaba uyushmasining vazifasi. Diniy tashkilotlar va davlat munosabati. Jamoat birlashmalari va davlat munosabatlari. Ijtimoiy sheriklik. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni. So'z va matbuot erkinligini ta'minlash sohasidagi islohotlar va muammolar. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi. Ommaviy axborot vositalarining javobgarligi. Senzuraga yo'l qo'yilmaslik prinsipi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi O'zbekistonning davlat tuzilish shakli. O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birliklar va ularning tasnifi. Ma'muriy-hududiy birliklarni tuzish va tugatish tartibi. Ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini o'zgartirish. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi va uning O'zbekiston Respublikasi bilan munosabatlari. O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi Demokratik jamiyatda saylovning ahamiyati. O'zbekistonning saylov tizimi. Saylov huquqi va saylov huquqi prinsiplari. Saylov jarayoni va unda ishtirok etuvchi subyektlar. Saylov o'tkazish muddatlari va saylov kompaniyasining boshlanishi. Saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish. Saylovlarni moliyalashtirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Parlament va oliy vakillik organi tushunchalari. Parlamentning funksiyalari. O'zbekistonda parlament islohotlari. Oliy Majlis Qonunchilik palatasini tashkil etish. Qonunchilik palatasining tuzilishi. Oliy Majlis Senatini tashkil etish. Senatning tuzilishi. Oliy Majlis va uning palatalari vakolatlari. Qonun ijodkorligi jarayonining konstitutsiyaviy asoslari. Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti munosabatlari. Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi

munosabatlari. Parlament nazorati. Oliy Majlis va sud hokimiyati munosabatlari. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi O'zbekistonda prezidentlik institutining tashkil etilishi. O'zbekistonda prezidentlik institutining rivojlanishi. O'zbekistonning davlat boshqaruv shakli. O'zbekistonda Respublikasi Prezidentining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qasamyodi va uning huquqiy oqibatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari bilan munosabatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi. Vazirlar Mahkamasi - hukumatni shakllantirish. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining huquqiy maqomi. Ishonchsizlik votumi. Vazirlar Mahkamasi tuzilishi. Vazirlar Mahkamasi vakolatlari. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari Mahalliy davlat hokimiyatining vazifa va funksiyalari. Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish va mahalliy davlat hokimiyati. Mahalliy vakillik organlari. Mahalliy ijro hokimiyati organlari. Hokimlarni tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi. Hokimlarning hisobdorligi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saylash. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi. Sud hokimiyati Sud hokimiyati - davlat hokimiyati mustaqil tarmog'i. Sud-huquq islohotlari. Sud hokimiyati organlari tizimi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi. Sudyalarning korpusini shakllantirish, sudyalarni saylash va tayinlash tartibi. Sudlar faoliyatining asosiy prinsiplari. Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning umumiy masalalari. Ishni Konstitutsiyaviy sud majlisida ko'rib chiqish. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari. Prokuratura organlari Prokuratura organlarining huquqiy maqomi. Prokuratura organlari tizimi va vazifalari. Prokuratura organlari ish faoliyatining asosiy prinsiplari. Prokurorlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish tartibi. Yangi O'zbekiston sharoitida prokuratura organlari tizimida olib borilgan islohotlar haqida bilimlarga ega bo'lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b.
2. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2018. – 220 b.
3. Islamov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava (Chast 1. Teoriya gosudarstva). Uchebnik. – T.: TGYUI, 2013. – 325 s.
4. Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik. Pod red. Abduraxmanova K.X. – M.: Ros. ekon. akad., 2008. – 620 b.
5. Odilqoriev X.T., Tulteyev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2020. – 592 b.
6. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. – TDYUU, 2018. – 181b.
7. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent.: 2020. – 399 b. “Yuridik adabiyotlar publish” bosmaxona.
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: TDYUI nashriyoti, 2012. – 649 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYUI, 2020 – 545 b.
10. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – 552 b.
11. R.Xakimov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi. – Toshkent: O'quv qo'llanma TDYUU, 2020. – 100 b.
12. O'zbekiston Respublikasi parlament huquqi. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.To'laganov. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYUI, 2006. – 286 b.

Axborot manbalari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.natlib.uz